

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.01.05. RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SAFAROV MAQSUDALI KAMOL O‘G‘LI

**ABU BAKR AR-ROZIY ILMIY MEROSINING FALSAFIY
TAHLILI**

(«Tibb ur-ruhoniyy» va «Siyrat ul-falsafa» asarlari misolida)

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
философским наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of the Doctor of Philosophy (PhD) on
Philosophical Sciences**

Safarov Maqsudali Kamol o'g'li

Abu Bakr ar-Roziy ilmiy merosining falsafiy tahlili ("Tibb ur-ruhoniyy" va
"Siyrat ul-falsafa" asarlari misolida).....5

Safarov Maqsudali Kamal ugli

Философский анализ научного наследия Абу Бакра ар-Рази (на примере
трудов Тибб ур- руханий и Сийрат уль-фальсафа)».....22

Philosophical analysis of the legacy of Abu Bakr al-Razi (in the example of
the works "Tibb ur-ruhoniyy" and "Siyrat ul-falsafa").....42

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....47

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY
DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2019.F.01.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

SAFAROV MAQSUDALI KAMOL O‘G‘LI

**ABU BAKR AR-ROZIY ILMIY MEROSINING FALSAFIY
TAHLILI**

(«Tibb ur-ruhoniyy» va «Siyrat ul-falsafa» asarlari misolida)

09.00.03 – Falsafa tarixi

**FALSAFA FANLARI bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi attestatsiya Oliy komissiyasida №B2023.2.PhD/Fal994 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi ik-falsafa@nuu.uz va «Ziyonet» axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Muxtarov Azamat
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xolmo'minov Ja'far Muhammadiyevich
falsafa fanlari doktori, dotsent

Xo'jayev Mo'minjon Isoxonovich
falsafa fanlari doktori(DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat transport universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi DSc 03/30.30.12.2019.F.01.05 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil 4-sentabr soat 16-00 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Yoshlar ittifoqi madanyat saroyi.Tel.: (99871) 246-02-24, faks: (99871)246-02-24, e-mail: nauka@nuu.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy. Tel.: (99871) 246-02-24; faks: (99871) 246-02-24).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «21» avgust kuni tarqatildi.

(2025-yil 21 avgustdagi 15-raqamli reyestr bayonnomasi).

I.S.Saifnazarov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, falsafa fanlari doktori, professor

G.M.Shadimetova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

O'.G'.Tilavov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, falsafa fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bugungi globallashuv jarayonida yuzaga kelayotgan insoniyat ma'naviy-ahloqiy va umuminsoniy qadriyatlarida ijobiy o'zgarishlarni rivojlantirishda dunyo xalqlari ma'naviy merosi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, bugungi axborotlashgan jamiyatda Sharq mutafakkirlarining merosida ilgari surilgan konstruktiv g'oyalarga bo'lgan ehtiyoj va intilish yanada kuchayib bormoqda. Shu bois bilimlarning uzviyligini ta'minlash, yoshlarning intellektual salohiyatini va ma'naviy-ahloqiy qarashlarini rivojlantirishda «Tibb ur-ruhoniyy», «Siyrat ul-falsafa» asarlaridagi xalqparvarlik, adolatparvarlik, do'stlik, tinchlik, sevgi, muhabbat va ma'rifatparvarlik kabi qarashlaridan foydalanish va sharq falsafasidagi o'rnini ochib berish dolzarb masaladir.

Dunyo miqyosida Sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosi, xususan, ar-Roziyning diniy, ijtimoiy-falsafiy qarashlari Eron, Pokiston, Hindiston, Turkiya, AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Tojikiston, kabi davlatlarning tadqiqot institutlari hamda universitetlarida ilmiy jihatdan o'rganilmoqda. Jumladan, dunyo olimlari tomonidan mutafakkirning ontologik, gnoseologik, ilmga intilish, aqlni ulug'lash, olamni anglash, axloqiy kamolot, ijtimoiy adolatga oid taraqqiyparvar g'oyalari, «Tibb ur-ruhoniyy» asaridagi axloqiy g'oyalar, ijtimoiy falsafiy konsepsiyasi Abu Bakr ar-Roziy dunyoqarashiniga ta'sir ko'rsatgan omillar tadqiq etilmoqda.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida Sharq madaniyatining boy tarixiy merosini o'rganish va ulardan yosh avlodni ma'naviy barkamol qilib tarbiyalashda ularning asarlaridan keng foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Markaziy Osiyo xalqlari falsafiy merosini o'zida jam etuvchi Sharq falsafasi doimo dunyo olimlari diqqat markazida bo'lib kelgan. Sharq har doim «asos soluvchi» vazifasini bajargan. Sharq falsafasini, siyosatini o'rganishimizning muhim sabablaridan biri, bu ma'lum davrlarda, ya'ni Arab xalifaligi davridan toki temuriylar davrigacha, hatto miloddan avvalgi davrlarda ham Markaziy Osiyo, Yaqin Sharq, O'rta sharq, Shimoliy Hindiston kabi o'lkalar bilan bir siyosiy tuzilma tarkibida bo'lganligidir. Darhaqiqat, islom dini va madaniyatining ushbu mintaqa xalqlari uchun yakdilligi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli islom dunyosida yaratilgan barcha asarlar musulmonlar uchun mustahqiq yodgorlik hisoblanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev 2021-yil 16-iyul kuni «O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorni imzoladi. Unda yurtboshimiz Uchinchi Renessans - Yangi O'zbekiston» g'oyasining mazmun-mohiyatini, jumladan, uning ilm-fan rivoji, dinlararo va millatlararo bag'rikenglikni ta'minlashdagi roli va ahamiyatini jamoatchilik orasida keng targ'ib qilish dasturi ham o'rin olgan edi¹.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 17-apreldagi PF-5416-son «Diniy-ma'rifiy soha faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyuldagi PQ-5186-son qarori.

to'g'risida» gi, 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» farmonlari, 2020 yil 16 apreldagi PQ-4680-son «Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2022 yil 10 fevraldagi PQ-126-son «Qadimiy yozma manbalarni saqlash va tadqiq etish tizimini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq amalga oshirilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Abu Bakr ar Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy (865-925) ning ilmiy merosini o'rganish ham Sharq, ham G'arb olimlarida katta qiziqish uyg'otib kelgan. Uning tibbiyot, psixologiya, kimyo, farmasevtika, fizika, falsafa, mantiq va ilohiyotsohalariga oid yozilgan 240 dan ortiq asarlari X-XI a asrlardan bohlab Sharq muafakkirlarining diqqat markazida bo'lib kelgan. Bu davrda ilk marta an-Nadim o'zining «Al-Fehristi»ida ar-Roziy asarlarining ro'yxati uchun alohida bob ajratadi². Ibn Nadim (vaf. h.q.385) Roziy asarlarining birinchi ro'yxatini uning vafotidan taxminan 64 yil o'tib tuzgan. Ibn nadim ma'lumotiga ko'ra Roziyning kitoblari sifatida keltirilgan asarlar Roziyning o'z ro'yxatidan olingan. Dalillarga ko'ra, Ibn Nadim ro'yxati Roziyning o'zi umrining o'rtalarida tayyorlab qo'ygan ro'yxatda keltirilgan ko'rinadi, chunki Ibn Nadim ro'yxatida «Bur'as-as'a» kitobi tilga olinmagan, ehtimol Roziyning oxirgi asarlaridan biri bo'lgan. Ushbu ro'yxatda Ibn Nadim Roziyning tibbiyot, astronomiya, astronomiya qoidalari, ilohiyot, falsafa kabi turli mavzulardagi 150 ga yaqin kitoblari va risolalari nomini sanab o'tgan. Ibn Nadimning yagona mavzu bo'limi Roziyning alkimyo sohasidagi kitoblari haqida bo'lib, u «Alkimyogarlarning yangiliklari» ning boshqa o'rnida eslatib o'tadi. Ikkinchi to'plamda esa yettita kitob bor. Ibn Nadimning ro'yxati oradan uch asr o'tib, ozmi-ko'pmi Qiftiy (vaf. h.q.646) tomonidan davom ettirilgan. Qiftiy tuzgan ro'yxatda asarlar tematik tartibda berilmagan, faqat Ibn Nadim ro'yxati ma'lum darajada umumlashtirilgan.

Abu Rayhon Beruniy esa o'zining «Risalat li-l Beruniy fiy fehristi kutub Muhammad Zakariya ar-Roziy» nomli risolasida Zakariyo Roziyning hayoti haqida ma'lumot berar ekan, uning asarlarini ham zikr etib o'tadi. Roziy asarlarining tematik ro'yxatini tayyorlash tashabbusi eng avvalo, Abu Rayhon Beruniyga tegishli. Abu Rayhon Beruniy ushbu ro'yxatda Roziyning tibbiyot, tabiatshunoslik, mantiq, matematika, astronomiya, boshqalarning asarlaridan tayyorlagan talqin va

² ابن ندیم. فهرست، چاپ محمدرضا تجدد، تهران: 1350 ش.

xulosalar, falsafa, metafizika, ilohiyot, kimyo, kufrga oid yozgan asarlari va boshqa mavzularga oid 184 ta kitobini turkumlashtirib, tanishtirdi. Abu Rayhon Beruniyning asarlari bo'yicha tayyorlagan tasnifining ta'sirini ko'proq zamonaviy mualliflar tomonidan tuzilgan ro'yxatlarda, jumladan, eronlik olim Mahmud Najmobodiy ro'yxatida ko'rish mumkin. M.Najmobodiyning «Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo Roziy ta'liflari» (Tehron1339) nomli mustaqil kitobida Roziyning 266 ta asari keltirilgan. Abu Rayhon Beruniy ro'yxatida «Bar' as-Saa» kitobining nomi tilga olinmagan.

Aynan shu davrda buyuk mutafakkir Abu Ali Ibn Sino Zakariyo Roziyning tabiiy, aqliy va aniq fanlarda birdek tadqiqot olib borish va asarlar yozish an'anasini davom ettiradi.

Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziyning boy ilmiy merosini tadqiq etgan Sharq va G'arb olimlarini quyidagi to'rt guruhga bo'lish mumkin:

Birinchi guruhga Sharq mutafakkirlaridan Ibn an-Nadim va Abu Rayhon Beruniy³ kiritish mumkin.

Zakariyo ar-Roziy ilmiy merosiga Ibn an-Nadim, Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinodan so'ng Sharq mutafakkirlari Kotibiy Xorazmiy, Ali Bayhaqiy, Nosir Xusrav, Ibn Qiftiy, Ibn Xallikon, Imom Faxriddini Roziy va boshqa mutafakkirlar ham yuksak baho berib o'tganlar.

Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziyning asli kelib chiqishi fors – eronlik bo'lgani va uning ilmiy tafakkuri Qadimgi Eron va islom tafakkurining mahsuli sifatida baholangani uchun bo'lsa kerak, oxirgi yuz yil ichida Eron va Tojikistonda o'ziga xos Roziyshunoslik ilmiy-tadqiqot maktablari shakllanganini ham alohida ta'kidlab o'tish kerak. Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy ilmiy merosiga oid Eronda amalga oshirilgan tadqiqotlar ko'lami va ahamiyatini nazarga tutgan holda eronlik va tojikistonlik olimlarni Abu Bakr ar-Roziy ilmiy merosining **ikkinchi guruh** tadqiqotchilari sifatida tasniflash mumkin. Eronda Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyo ar-Roziy hayoti, uning yashagan davri, ilmiy merosi va falsafiy qarashlariga oid amalga oshirilgan yuzlab tadqiqotlardan misol tariqasida Zabehulloh Safo⁴, Mehdiy Muhaqiq⁵, Mahmud Najmobodiy⁶, Hamidrezo Qanbariy⁷, Mino Taqaviy⁸, Tojikiston olimlaridan akademiklar A.Bahovaddinov⁹, A.Devonaqulov,¹⁰ M.Dinorshoev¹¹, M. Osimiy¹², faylasuf, tarixchi, fizik va ximik

³ Абурайхан Беруни. Избранные произведения. Том 1. – Ташкент, 1967. – С.168.

⁴ Забехулло, Сафо. Таърихи адабиёти Эрон. – Душанбе: Алхудо, 2001.

⁵ Мехдии Мухақик. Файласуфи Рай Мухаммад ибн Закариёи Розий. Техрон.1349 -С. 154.

⁶ محمود نجم آبادی. مولفات ابوبکر محمد ابن زکریای رازی. - تهران - 1339.

⁷ حمیدرضا قنبری. زندگی نامه ابوبکر محمد بن زکریای رازی. - تهران - 1401.

⁸ مینا تقوی. زندگینامه زکریای رازی، از کشف الک تا علت مرگ. - تهران - 1400.

⁹ Баҳоваддинов А. Очеркҳо оид ба таърихи фалсафаи тоҷик. – Душанбе, 1961.

¹⁰ Девонақулов А. Мухаммад Закариёи Розӣ. – Душанбе: “Ирфон”, 1980.

¹¹ Диноршоев М. Плюралистическая философия Абу Бакра ар-Рази. – Душанбе: Дониш, 2013.

¹² Осимий М. Абуалӣ ибни Сино ва тамаддуни ҷаҳонӣ. – Душанбе, 1990.

olimlardan G.Ashurov¹³, T.Mardonova¹⁴, A.Komiliy¹⁵ Qurbonov¹⁶, A.Grezoda¹⁷ tomonidan yozilgan dissertatsiyalar, nashr etilgan monografiya, risola va maqolalarida ar-Roziyning hayoti, ilmiy merosi va falsafasi haqida alohida to'xtalib o'tilgan.

Uchinchi guruh tadqiqotlariga G'arb sharqshunoslaridan Ruska,¹⁸ V.V.Bartold¹⁹, Artur J. Arberri²⁰, Guseynov A.A.²¹, Peter Adamson²², Paul Kraus²³, L.E. Godman²⁴, Otakar Klima²⁵, Tomas Arnold²⁶, Carl Brockelmann, Edward Granville Browne, Walker. Ye.Paul, A.Bell²⁷, arab tadqiqotchilaridan A.Ahmad²⁸, A.Badaviy²⁹, kabi o'nlab mashhur olimlarni kiritish mumkin.

To'rtinchi guruh tadqiqotlariga O'zbekistonda olib borilgan ilmiy izlanishlarni kiritish mumkin. O'rta asrlar musulmon falsafasi ilmiy merosida axloqiy va aksiologik muammolarning umumiy metodologik jihatlarini tadqiq qilgan o'zbek olimlaridan I.U.Karimov tomonidan 1957-yilda Ar-Roziyning kimyoga oid «Неизвестное сочинение ар-Рази «Книга тайны – тайн»³⁰ nomli kitobi tarjima qilinib tahlil qilingan, M.A.Usmonov tomonidan «Философские взгляды Абу Бакра Мухаммада Закария Ар-Рази» nomli dissertatsiya ishida faylasufning ontologiya, gnoseologiya, etika va estetikaga oid fikrlari tahlil qilingan.

¹³ Ашуров Г. Философские взгляды Носира Хусрава. – Душанбе. 1965

¹⁴ Абу Бакр ар-Рази. Духовная медицина -Душанбе; Ирфон.1990.-С.88

¹⁵ Komili, A. The Problems of physics in the works of ar-Razi and Ibn Sina // Science and Technology in the Islamic World. Proceeding of the XXth International Congress of History of Science / A. Komili. - Belgium, Liege, 1997; Комили, А.Ш. Физика Абубакра ар-Рази / А.Ш. Комили. - М.: МБА, 2014; Комилов, А.Ш. Физика ар-Рази и Ибн Сины. - М.: МГУ, 1999.

¹⁶ Курбонов, Б.Р. Мухаммад Закариё ар-Рази - химик и философ // Известия Академии наук Республики Таджикистан / Б.Р. Бурбонов, З.Н. Юсуфов. - Душанбе, 2004; Курбонов, Б.Р., Ученые о трудах по химии Мухаммада Закария Рази // Вестник РТСУ / Б.Р. бурбонов, Сангинова Р.- Душанбе, 2012. №3 (38).

¹⁷ Грезода, А.М. Тахлили муқоисавии фалсафаи ахлоқи Абӯбакри Розӣ ва Насириддини Тӯсӣ (Монография) – Донишгоҳи миллии Тоҷикистон. – Душанбе: Матбааи ДМТ, 2023.

¹⁸ Ruska, I. Die Alchemies ar-Razi's, der Islam. Bd. 22, Heft 4, 1935.

¹⁹ Бартольд В. В. Персидская культура и её влияние на другие страны. Сочинения. Том М.: Наука. 1966: - С.235.

²⁰ Translated from the Arabic by Arthur J. Arberry, Litt.D., F.B.A. Sir Thomas Adams's Professor of Arabic in the University of Cambridge. 1950.page-100

²¹ Гусейнов А. А, Иррлитс Г. Краткая история этики. - М.: Мысль, 1987: -С.587.

²² Peter Adamson.Al-Razi Great Medieval Thinkers, Oxford University Press,2021.-256 pages

²³ The Political Implications of al-Razi's Philosophy', in C. Butterworth (ed.) The Political Aspects of Islamic Philosophy, Cambridge, MA: Harvard University Press, 61-94. (The standard work on al-Razi's political theory.)1992 Al-Razi (before 925) al-Tibb al-ruhani (The Spiritual Physick), ed. P. Kraus in Rasa'il falsafiyya li-Abu Bakr Muhammad b. Zakariyya' al-Razi, Cairo: Fouad I University Faculty of Letters, 1939; repr. Beirut: Dar al-Afaq al-Jadida, 1973; trans A. Arberry, The Spiritual Physick of Rhazes, London: John Murray, 1950. (An account of al-Razi's philosophical and ethical psychology.)

²⁴(1972) 'Razi's Psychology', Philosophical Forum 4: 26-48. (An explanation of the implications and background of his psychological views.)

(1975) 'Razi's Myth of the Fall of the Soul: Its Function in His Philosophy', in G. Hourani (ed.) Essays in Islamic Philosophy and Science, Albany, NY: State University of New York Press, 25-40. (A detailed account of the doctrine of the soul.) (1971) 'The Epicurean Ethic of M. b. Zakariya' al-Razi', Studia Islamica 34: 5-26. (An account of the links between Epicureanism and al-Razi.)

²⁵Otakar Klima, Mazdak and thebeginning of Social Movements in Iran, «New Orient», v. 1,1960, N 4, p. 296

²⁶ The Legacy of Islam, 2013 page.481

²⁷ Bell A. Encyclopædia Britannica (ингл.брит). – Encyclopædia Britannica, Inc., 1768.

²⁸ “Тариху фикри-л-арабий аль-ислабий. Дамашк Ар рауда.1997.-С.79

²⁹ Badawi A. R. Histoire de la philosophie en Islam (фр.) // Études de Philosophie Médiévale. – Paris: Librairie philosophique J. Vrin, 1972. – Vol. 60. – P. 577. — 886 с.

³⁰ Каримов И. У. Неизвестное сочинение ар-Рази «Книга тайны - тайн», АН Узб. ССР, Т: 1957. -С.159

M.Qodirov rahbarligida yozilgan «Markaziy Osiyo, Yaqin va Oʻrta sharqning falsafiy tafakkuri (oʻrta asrlar)»³¹ nomli darslikda oʻrta asrlarda yashagan faylasuflar qatori Ar-Roziyning ham hayoti, ilmiy faolyati va falsafiy qarashlari haqida oʻz ilmiy faolyatida atroflicha toʻxtalib oʻtganlar.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy taʼlim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bogʻliqligi. Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq «Barkamol inson shaxsini shakllantirish va uning ijtimoiy-maʼnaviy mohiyati» mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi Abu Bakr ar-Roziyning falsafiy qarashlarini «Tibb ur-ruhoniyy» va «Siyrat ul-falsafa» asarlari orqali ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Abu Bakr ar-Roziy qarashlarining shakllanishi va gʻoyaviy asoslarini, hayoti va ijodini oʻrganish;

Abu Bakr ar-Roziyning materiya, aql, xudo, axloqqa oid fikrlarini yoritish;

Abu Bakr ar-Roziyning axloqiy qarashlarini «Tibb ur-ruhoniyy» asaridagi fikrlar orqali tahlil qilish;

Ar-Roziyning falsafiy hayot haqidagi fikrlarini «Siyrat ul-falsafa» asari orqali talqin qilish;

Ar-Roziy qarashlarining axloqiy-aksiologik xususiyatlari va hozirgi Yangi Oʻzbekiston maʼnaviy hayotidagi ahamiyatini ochib berish va ilmiy asoslash.;

Tadqiqotning obyektini Abu Bakr ar-Roziyning falsafiy axloqiy-konsepsiyasi tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti Abu Bakr ar-Roziyning «Tibb ur-ruhoniyy» (Ruhiy tabobat), «Siyrat ul-falsafa» asarlaridagi falsafiy-axloqiy fikrlarni tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Dessertatsiya ishida tizimlilik, qiyosiylik, tavsifiylik va tasnifiylik, oʻzaro aloqadorlik, germeneytik, tarixiylik tamoyillaridan, analiz va sintez, induksiya diduksiya, ratsional, ratsional empirik usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Abu Bakr ar-Roziy axloqiy-falsafiy qarashlari shakllanishiga taʼsir koʻrsatgan moniylik, mazdakiylik va muʼtaziliy taʼlimotlarning mazmuni ilk bor evolyutsion-metodologik asosda ochib berilib, ularning diniy-falsafiy tafakkur va ijtimoiy boshqaruvdagi epistemologik izchiligi ilmiy jihatdan isbotlangan;

Abu Bakr ar-Roziyning “Tibb ur-Ruhoniyy” asaridagi axloqiy gʻoyalar ilk bor zamonaviy etik tafakkur bilan qiyosiy tahlil asosda oʻrganilib, ularning aktual metodologik ahamiyati aniqlangan;

Abu Bakr ar-Roziyning “Tibb ur-Ruhoniyy” asardagi axloqiy kategoriyalarning Yangi Oʻzbekiston yoshlari tarbiyasi, globallashuv sharoitidagi axloqiy

³¹ Qodirov M. Markaziy Osiyo, Yaqin va Oʻrta sharqning falsafiy tafakkuri (oʻrta asrlar). -T.: ToshDShI nashriyoti, 2009.191 b.

kompetensiyalar va ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan me'yorlar tizimi ilmiy asosda dalillangan.

Abu Bakr ar-Roziyning «Siyrat ul-falsafa asari orqali chinakam falsafiy hayotning qanday bo'lishi kerak ekanligi, kiyinish odoblari, mol-mulk to'plashga, ovqat va ichimlikka, hamjihatlik va ma'rifatga undovchi kamolot mezonlari tizimi yoshlar xulq-atvori, intellektual, axloqiy, professional, kreativ fikrlash, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishi bilan bog'liq akseologik, falsafiy yondashuvlar jamiyatda qabul qilingan normalar va me'yorlar asosida ochib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat: tadqiqotda sharq olamida mashhur bo'lgan olimning ijtimoiy- falsafiy qarashlari, o'rganilmagan jihatlari ochib berildi. Shuningdek, olimning bizga noma'lum bo'lgan asari o'rganildi va shaxsiy fikrlar orqali kerakli xulosalar berildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot jarayonida qo'llanilgan nazariy qarashlar, yondashuv uslublari, ilmiy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, ishonchli dalillardan olinganligi respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plamlari, OAK ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, Abu Bakr ar-Roziyning ontologik va gnoseologik qarashlari, Rohatlanish kategoriyasi haqidagi fikrlari, shuningdek «Ruhiy tabobat» va «Falsafiy hayot tarzi» asarlari tahlili natijalari, taqdim etilgan ilmiy-nazariy xulosalar, taklif va tavsiyalar globallashtirish sharoitida ma'naviy – marifiy sohalarga bag'ishlangan barcha fan tarmoqlarida o'tkazilayotgan tadqiqot ishlarini nazariy va uslubiy jihatdan boyitish uchun muayyan manba bo'lib xizmat qilishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, tadqiqot natijalaridan oliy ta'lim muassasalarida bakalavr va magistratura bosqichlarida «Falsafa», «Din falsafasi», «Axloq va nafosat falsafasi», «Sharq falsafasi va madaniyati tarixi», «Madaniyatshunoslikva akseologiya», «G'oyalar falsafasi», «Sharq va G'arb falsafasidagi antropologik muammolar» kabi fanlarni o'qitish jarayonida foydalanish mumkin.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ijtimoiy va madaniy muassasalar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi, Imom Termiziy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.

Abu Bakr ar-Roziy axloqiy-falsafiy qarashlari shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan moniylik, mazdakiylik va mu'taziliy ta'limotlarning mazmuni ilk bor evolyutsion-metodologik asosda ochib berilib, ularning diniy-falsafiy tafakkur va ijtimoiy boshqaruvdagi epistemologik izchiligi ilmiy jihatdan isbotlangan. Natijada, mazkur dissertatsiyada ilgari surilgan Sharq va G'arb diniy-falsafiy tafakkurida axloq va aql

uyg'unligi borasidagi g'oyalarni targ'ib etishda Abu Bakr ar-Roziyning "Ruhiiy tabobat" ta'limoti borasidagi tahlillardan, takliflar, amaliy tavsiya va ilmiy xulosalardan Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan yillik rejaga muvofiq o'tkazilgan "Jaholatga qarshi ma'rifat", "Ekstremistik va terroristik tashkilotlarning g'arazli niyatlari va muqaddas islom dinining asl mazmun-mohiyati" mavzularidagi davra suhbatlari hamda targ'ibot tadbirlarini tashkil etishda foydalanilib, ko'zlangan samarani berdi. Bugungi global ma'naviy tahdidlar avj olgan zamonda ar-Roziy dunyoqarashining mazkur jihati yanada muhim ahamiyat kasb etishi, nazariy va amaliy jihatlari ochib berilganligi diqqatga sazovor (Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2025 yil 18-martdagi 01-07/42-sonli ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur dissertatsiyada ilgari surilgan Sharq va G'arb diniy-falsafiy tafakkurida axloq va aql uyg'unligi borasidagi g'oyalarni targ'ib etishda muhim manba bo'lib xizmat qilgan.

Abu Bakr ar-Roziyning "Tibb ur-Ruhoniy" asaridagi axloqiy g'oyalar ilk bor zamonaviy etik tafakkur bilan qiyosiy tahlil asosda o'rganilib, ularning aktual metodologik ahamiyati aniqlangan. Jumladan, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yil uchun chora-tadbirlar dasturining VI yo'nalishida belgilangan "Millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik bo'yicha targ'ibot-tashviqot tadbirlari, aholi o'rtasida radikalizm illatini oldini olish" 26-bandi "Jamiyatda radikallashuv kuchayishini oldini olish, yoshlar ongini buzg'unchi yot g'oyalar bilan zaharlashga qaratilgan turli xil harakatlarga qarshi kurashish borasidagi ustuvor vazifalarni belgilash va amalga oshirish" hamda mazkur yo'nalishning 28-bandi "Aholi, ayniqsa yoshlar orasida radikal kayfiyatlarni uyg'otishga, axloqsizlikni yoyishga qaratilgan buzg'unchi g'oyalarga qarshi samarali targ'ibot ishlarini tashkil etish" mavzuilaridagi targ'ibot ishlarini o'tkazishda dissertatsiya materiallaridan foydalanilgan. Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya va xulosalar mamlakatimizda ma'naviyat, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda axloqning o'rni, radikalizm va ekstremizmga qarshi kurash yo'nalishidagi faoliyatini tashkil etishda hamda respublikadagi ma'naviy-ma'rifiy soha targ'ibotchilari uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qilgan. Globallashuv sharoitida yoshlar ma'naviy-ma'rifiy qarashlarini yuksaltirish, dinlar va madaniyatlarning o'zaro hamjihatligini mustahkamlashda diniy-ma'rifat va ilm-fanning samaradorligini oshirishga xizmat qilgan. (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2025 yil 18-martdagi 10/137-son dalolatnomasi). Natijada, dissertatsiyada ilgari surilgan takliflar, tavsiya xulosalar mamlakatimizda ma'naviyat, yoshlar ma'naviyatini yuksaltirishda axloqning o'rni, radikalizm va ekstremizmga qarshi kurash yo'nalishidagi faoliyatini tashkil etishda hamda respublikadagi ma'naviy-marifiy soha targ'ibotchilari uchun uslubiy tavsiyalar ishlab chiqishga xizmat qilgan.

Abu Bakr ar-Roziyning "Tibb ur-Ruhoniy" asardagi axloqiy kategoriyalarning Yangi O'zbekiston yoshlari tarbiyasi, globallashuv sharoitidagi axloqiy kompetensiyalar va ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish uchun zarur bo'lgan me'yorlar tizimi ilmiy asosda dalillangan. Bugungi kunda jahonda globallashuv tendensiyasi keskin tus olib, xalqlarning milliy mental xususiyatlari va uning lokal sivilizatsiyalariga nisbatan tahdidlar oshib borayotgan bir davrda jamiyat ma'naviy

hayotida kerak bo'ladigan axloqiy kategoriyalar nazariy tahlil qilinib ochib berilgan. Jamiyatda insonlar hayotida uchraydigan axloqiy kategoriyalar qanchalik muhim ekanligi ularni bartaraf qilish va yuksaltirish borasidagi fikrlar dolzarbligini yo'qotmagan. Axloq borasidagi fikrlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tomonidan nashr etilgan "O'rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy-falsafiy merosi nomli ensiklopediyasi"ni tayyorlashda hamda markaz tomonidan amalga oshirilgan davra suhbatlarini o'tkazishda, targ'ibot tadbirlarini tashkil etishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazining 2025 yil 13 fevraldagi 02/63 sonli ma'lumotnomasi). Natijada, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy tadqiqot markazi tomondan nashr etilgan "O'rta asr Sharq allomalari va mutafakkirlari tarixiy-falsafiy merosi nomli ensiklopediyasi" ni tayyorlashda hamda markaz tomonidan amalga oshirigan davra suhbatlarini o'tkazishda, targ'ibot tadbirlarini tashkil etishda xizmat qilgan.

Abu Bakr ar-Roziyning «Siyrat ul-falsafa asari orqali chinakam falsafiy hayotning qanday bo'lishi kerak ekanligi, kiyinish odoblari, mol-mulk to'plashga, ovqat va ichimlikka, hamjihatlik va ma'rifatga undovchi kamolot mezonlari tizimi yoshlar xulq-atvori, intellektual, axloqiy, professional, kreativ fikrlash, ma'naviy-ma'rifiy rivojlanishi bilan bog'liq akseologik, falsafiy yondashuvlar jamiyatda qabul qilingan normalar va me'yorlar asosida ochib berilgan. Ar-Roziy falsafiy dunyoqarashi, ularning qalb va ong borasidagi qarashlariga doir ilmiy-tarixiy bilimlarini oshirishga xizmat qilgan. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi «O'zbekiston tarixi» telekanalining «Taqdimot» ko'rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining 2025-yil 18-fevraldagi 01-33-81-son ma'lumotnomasi). Natijada dissertatsiyada ilgari surilgan taklif va tavsiyalar "O'zbekiston tarixi" telekanlida ayrim ko'rsatuvlarning ssenariysini shakllantirishda xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprotatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro, 3ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan hamda aprotatsiyadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola (3 ta respublika, 1 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya «Kirish», uchta bob, sakkizta paragraf, «Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati»dan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 135 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning «**Kirish**» qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati, uning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, tadqiqotning maqsadi, vazifalari, tadqiqot obyekti, predmeti, metodlari asoslangan, ishning ilmiy

yangiligi, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy-amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiya tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Abu Bakr ar-Roziy ilmiy-falsafiy merosini o'rganishning nazariy-metodologik asoslari**» deb nomlanib unda musulmon-arab dunyosida falsafiy g'oyalar evolyutsiyasining tarixiy-madaniy sharoitlari, unga ta'sir ko'rsatgan falsafiy yo'nalishlar, Abu Bakr ar-Roziy falsafiy qarashlarining metodologik jihatlari, ontologik, gnoseologik jihatlari uning «Besh abadiyat ta'limot»ining nazariy va g'oyaviy asoslari, uning falsafiy asarlari yaratilishi va shu kabi masalalar ilmiy-nazariy tahlil etilgan.

Dissertant ta'kidlashicha, Abu Bakr ar-Roziyning dunyoqarashi o'sha davr ruhiyati bilan boyitilgan edi. Abu Bakr ar-Roziyning ijodini tahlil qilib, uning falsafiy-axloqiy qarashlariga, nafaqat aniq fanlar, balki diniy aqidalar, ayniqsa, zardushtiylik ulkan ta'sir ko'rsatganini ko'rishimiz mumkin. Bundan tashqari Xuroson va Movarounahr aholisi o'zining yozuviga ega bo'lib, bu yerda madaniyat va adabiyotni shiddat bilan rivojlanishiga turtki bo'lgan. Bu hududning olimlari va yozuvchilari bizga arab, fors va boshqa tillarda yozilgan katta ilmiy va badiiy asarlarni meros qoldirishgan.

Tabiat, olamning paydo bo'lishi, yer yuzidagi hayotning boshlanishi haqidagi dastlabki falsafiy qarashlar islomgacha bo'lgan davr afsonalarida uchraydi.

Dissertantning fikricha, Abu Bakr ar-Roziyning qarashlarida zardushtiylik bilan birga, yunon olimlarining ta'sirini ham ko'rish mumkin. Shifokor Ali Ahmad shunday ta'kidlaydi: «Arablar qadimgi sharq va yunon falsafasini o'rganishgan, ammo Platon va Aristotelga nisbatan alohida yondashishgan. Ular Platonning «Davlat» shuningdek, Aristotelning ko'plab asarlarini tarjima qilishgan. Arablar Platon va Aristotel asarlari orqali yunonlarni bilishgan va o'rganishgan, Xunayin Ish'oq va uning asarlari «Navodir al-falsafa ya al-hukuma» («Nodir faylasuf va donishmandlar») orqali o'zlarining tarixchilarini o'rganishgan»³².

Aytish joizki, Makedoniyalik Aleksandrning bosqinchilik yurishlari sharqqa qadimgi Yunoniston madaniyatini, ayniqsa, Xuroson va Movarounahrga olib keldi va natijada yangi madaniyat – ellenistik madaniyat paydo bo'ldi. Bu madaniyatning ta'siri hudud aholisi hayotining barcha jabhalariga, shu jumladan ilm-faniga, tiliga, yozuviga, diniga, urf-odatiga, an'anasi-yu davlat boshqaruviga, falsafasiga, etikasiga va boshqa sohalariga ta'sir ko'rsatdi. Abu Bakr ar-Roziyni oladigan bo'lsak ellenizm ta'siri uning axloqiy qarashlarida namoyon bo'ladi. Asosan axloqning bir kategoriyasi bo'lmish rohatlanish kategoriyasiga ta'sir ko'rsatdi. «Rohatlanish xuddi oldingi holatingga qaytishdek tushuniladi. Chunki azoblar va o'z tabiiy holatdan chiqish asta-asta, ma'lum vaqt davomida sodir bo'ladi va natijada qisqa muddat ichida tabiiy holatga qaytish sodir bo'lib, azobni his qilmaydigan bo'lamiz, mana shunday holatni rohatlanish deb ataymiz»³³.

Abu Bakr ar-Roziyning dunyoqarashini shakllanishida Moniy g'oyalari katta ta'sir ko'rsatgan. Moniylik dinining paydo bo'lishi Yaqin Sharq, undan so'ng

³² Абу Бакр ар Рази. Духовная медицина -Душанбе; Ирфон. 1990- С.64

³³ Гусейнов А.А. Г.Краткая история этики. - М.1987-С.49.

Italiya, Xitoyga tarqalishi, moniylikda yorug'lik va zulmatning kurashi, o'zida xristianlik, buddaviylik, zardushtiylik dinlarining elementlarini o'zida jamlashi Abu Bakr ar-Roziyning ijodiga ta'sir qildi.

Moniy payg'ambarlarning mo'jizalarini qoralaydi, yolg'onchilik, xasislik, qotillik, o'g'rilik, hayotda va dinda ikkiyuzlamachilik va ko'z bo'yamachilikka qarshi chiqadi. U olam asosida 4 elementni ko'ra oldi, bular – ong, Xudo, yorug'lik va yaratuvchi kuch. Moniylikning mazkur qarashlari Abu Bakr ar-Roziyning falsafiy qarashlarida o'z ifodasini topdi. Bundan tashqari ar-Roziy moniylikning ba'zi xatti harakatlariga qarshi chiqdi. U moniylikning o'zini och va tashnalikda qoldirish, xristianlikning cherkovi va musulmonlarning masjidlarini ziyorat qilishdan bosh tortish, taomga hech qanday ahamiyat bermaslik harakatlarini rad etdi³⁴.

Ar-Roziy o'rta asr Yaqin va O'rta Sharq xalqlari falsafasida mavjud bo'lgan ta'limotlarning birortasiga bog'liq bo'lmagan holda borliq va uning mohiyati haqida o'z mustaqil ta'limotini yaratdi. Uning fikricha, borliq – yagona bir-biriga bo'ysunmagan 5 mustaqil boshlang'ich mohiyat (yaratuvchi, jon, zamon, makon, materiya) dan vujudga kelgan. Bularning har biri borliqning vujudga kelishi va mavjud bo'lib qolishida «zaruriy vujud»lardir. Ar-Roziy materiya, makon, zamonni yaratuvchi va jon bilan bir xil zaruriy mohiyat deb hisoblab, moddiylikni ilohiylikka, ilohiylikni moddiylikka bo'ysundirmadi. U o'z davrining yirik tabiatshunosi sifatida moddiy olam hodisalari va jarayonlarini materiya va uning xususiyatlari bilan izohlashga harakat qildi, o'z naturfalsafiy qarashlarida ma'lum darajada ilmiy nuqtai nazarga yaqinlashdi. O'rta asr falsafasi uchun erishgan eng katta yutuqlaridan biri – Roziyning narsalar moddiy atom zarralardan tuzilgani haqidagi ta'limotidir. U Demokrit va Epikur atomistik ta'limotini o'rta asrlarda birinchi marta qayta tikladi. Uningcha, materiya dastlab «bo'linmas zarralar (atom) holatida bo'ladi», ular «og'irlik va tanaga ega», «moddiy zarralarning bo'shliq zarralari bilan qo'shilishi» natijasida 4 unsur: tuproq, suv, xavo va olov paydo bo'ladi. Atomlarning moddiyligi, abadiyligi va ob'yektivligi tufayli ulardan vujudga kelgan moddiy olam ham ob'yektiv va abadiydir. Roziy zarralarning o'z-o'zidan harakati masalasini tushunmadi va muayyan narsalarning vujudga kelish jarayoni asosida materiya yotsa ham, bu jarayon jonning materiyaga intilishi va u bilan birikishi tufayli yuz berishi haqidagi dualistik nuqtai nazarda turadi³⁵.

Ar-Roziy makon va zamonni ham substansiya deb tushunadi, bu bilan ularni materiyadan va bir-biridan ajratadi. Roziyning bundan maqsadi ularning ob'yektivligini ta'kidlashdir. Roziy bilish nazariyasida moddiy olam hodisalarining inson sezgi a'zolariga ta'sir etib unda aks etishini, tashqi olam bilish ob'yekti, inson esa bilish sub'yekti ekanini ta'kidlaydi: «Sezgi – seziluvchi narsalarning sezuvchiga ta'siri», deb hisoblaydi.

³⁴ Otakar Klima. Mazdak and the beginning of Social Movements in Iran. «New Orient», v. 1.1960. N 4.p. 5-6.

³⁵ Усманов.М Философская взгляды Абу Бакра мухаммада Закария Ар Рази.автореф. канд. десс. Ташкент 1969-С.45

Xususan, Ar-Roziy bilishning eng kuchli quroli sifatida aqlga yuqori baho beradi. Uningcha, insonning ijodiy faoliyati faqat aql tufaylidir. Aql bizni olijanoblikka boshlaydi, hayotimizni go‘zallashtiradi, maqsadlarimizga yetkazadi.

U o‘zining asarlari qaysidir darajada insonning kamchiliklarini kamaytirib uning yaxshi xulqini mustahkamlashga undashiga harakat qilgan edi.

Shunday qilib o‘zining tibbiy risolalari bilan ar-Roziy jismoniy nuqsonlar va kassalliklarni davolagan bo‘lsa o‘zining axloqiy asarlari bilan esa inson xarakteri va xulq-atvorini yaxshilashga uringan.

Ar-Roziy inson qalbini davolash masalasini o‘rganishda uning ongiga urg‘u bergan. U shunday ta’kidlaydi: «ong tufayli biz ongsiz mavjudotlardan ustunlikka va xatto ularning ustidan hukumronlikka egamiz, ularni o‘zimiz uchun bizga foyda keltirishi uchun mehnat qilishga majbur qilamiz. Ong bilan bizni nima ulug‘lantirishini, hayotimizni yaxshilashini va o‘z istaklarimizga erisha olishimizni angladik. Boshqacha aytganda ong bilan biz kemalar tuzilishi san’atini o‘rganib dengizni zabt etib barcha chegaralarni yo‘q qildik. U bilan tibbiyotni, san’atni va boshqa ko‘plab o‘zimizga foyda keltiradigan sohalarni o‘rgandik. Uning yordamida biz uchun sirli, yashirin va uzoqda bo‘lgan hodisalarni tushundik. Ong bilan olam va yerning tuzilishini, quyosh, oy va boshqa sayyoralarning hajmini ular o‘rtasidagi masofa va harakatni o‘rgandik»³⁶.

Bu jumladan ar-Roziy yaxshi mantiqshunos va ratsionalistligini bilish mumkin. Ong va ratsionalizm tushunchalari uning asarlarida xuddi Aristotel va boshqa sharq perepatik olimlar – Kindiy, Forobiy, Ibn Sino, Tusiy va Davoniy kabilarning dunyoqarashi muhim rol o‘ynaydi. Ar-Roziy inson Xudoning mo‘jizasi ekanligini juda kam o‘rinlarda ta’kidlagan. Aksincha u insonning boshqa yaratiqlardan ustunligida ongning o‘rnini alohida ta’kidlaydi, u donishmandlik, fikirlashni rivojlantirish haqida yozadi. U donishmandlik Xudoning yaratgani emas, inson faoliyatining mahsuli deb aytadi. Shunday qilib ong yordamidagina inson hodisalar va narsalarning mohiyatini anglaydi.

Ar-Roziy o‘zining ratsionalist-materialist qarashlari yuzasidan, asosiy anglash quroli sifatida ongni ilgari suradi. Aynan o‘zining ongi va donishmandligi tufayli inson hayvonlardan ustun turadi.

Ar-Roziyning bu ulkan ishonchi «ongning bizni hayvonlardan, bolalardan va tentaklardan ustun qo‘yuvchi, ongli harakatlar bilan hissiy bilish orqali qabul qilganlarimizni ifodalovchi vosita ekanligi haqida xulosa chiqaradi»³⁷.

U davom ettiradi: «agar ongning xususiyati va kuchi afzalligi shunda bo‘lsa, demak, biz uni shunday yuqori o‘rinda saqlashimiz, uning qadrini tushurmasligimiz kerak. Biz uni tutqinlikda ushlamasligimiz kerak, chunki ong boshqaruvchidir, bo‘ysunuvchi emas, barcha harakatlarimizda unga murojat qilishimiz kerak»³⁸.

Shu maqsadda ar-Roziy maxsus ratsional doktrina ishlab chiqqan bo‘lib, unda nafaqat ontologiya, balki gnoseologiya metodlari va prinsiplarini yaratgan. Uning fikricha ong, olam va turmushning asosidir. Ar-Roziy islomning paydo bo‘lishini

³⁶Закариѣи Розий. Мунтахаби осор. 1989, -С. 45-46

³⁷ Абу Бакр ар Рази. Духовная медицина. – Душанбе; Ирфон, 1990. – С.24.

³⁸ Абу Бакр ар Рази. Духовная медицина – Душанбе; Ирфон. 1990. – С.24.

ratsionallik shaklining yangi ko'rinishi paydo bo'lgani bilan baholar edi. Bu yangi teologik, siyosiy, etnik va boshqa bilimlar islomning, etiqodchilarning fikricha, Xudoning so'ngsiz bilimidir. Ar-Roziy esa, bu so'ngsiz haqiqatni ongida ko'rar edi va unga bosh egar edi. Inson xulq-atvori va hayotining boshi sifatida ongni qo'yar edi, ongga qarama qarshi sifatida qalbni qo'yadi. Agar biz yaxshi ilim va xulq-atvorga ega bo'lishni xoxlasak, qalbning o'zboshimchaligini ongga bo'ysundirib, uni shu tariqa tarbiyalashimiz kerak, deb ta'kidlaydi ar-Roziy.

Biz unga(ongga) barcha ishlarimizda unga tayanishimiz, qashshoqligimiz sababchisi bo'lgan ehtirolarimizni unga yuklamasligimiz kerak.

Shuning uchun biz qalbni mashq qildirib, sinovlarda toblab ongga bo'ysundirishimiz kerak.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi, **Abu Bakr ar-Roziyning «Tibb ur-ruhoniyy» asaridagi falsafiy-axloqiy qarashlari tahlili deb nomlanib**, bu bobda asosan «Tibb ur-ruhoniyy» asarining boblari asosida tahlillar olib borilgan. Asardagi axloqiy kategoriyalar, insonlarning xulq-atvoridagi kamchiliklar yoritilgan. Ar-Roziy ta'kidlaydiki: « o'zining kitobiga qo'ygan maqsadining asosini qalbning intilishlari, xoxishning paydo bo'lishi va ularning nobud bo'lishi masalalarini eng to'g'ri va yaxshi echishdir»³⁹.

Abu Bakr ar-Roziy «Ruhiy tabobat» asarining boblarini quyidagi ko'rinishda shakllantirgan: 1) «Ongning afzalliklari va uning e'tirofi»; 2) «Ehtirolni cheklash va Platonning shu boradagi mulohazalari»; 3) «Qalbning nojo'ya belgilari haqida»; 4) «Insonning o'zining kamchiliklarini bilishi haqida»; 5) «Sevgi va unga bog'lanib qolish haqida»; 6) «Rashkni rad etish haqida»; 7) «Haddan ziyod yomonlik bilan xavfli g'azabni uni qabul qilmaslik haqida»; 8) «Yolg'onni rad etish haqida»; 9) «Qo'rqqulikni rad etish haqida»; 10) «G'am va behuda o'ylovlarning zararini oldini olish haqida»; 11) «G'amdan qutilish haqida»; 12) «Ochko'zlikni rad qilish haqida»; 13) «Sharobxo'rlikni inkor qilish haqida»; 14) «Munosabatlarda haddan oshishni inkor qilish haqida»; 15) «Befoyda o'y surish haqida»; 16) «Ma'nosiz odatlar va qobiliyatlar, bekorchi ermaklarga moyillik va dinga o'ta berilishni inkor qilish haqida»; 17) «Ehtiyojlar va chiqimlarning meyor haqida»; 18) «Yaxshi va xayrli xulq-atvor haqida»; 19) «O'lim oldi qo'rquvi haqida» 20) «Unvonlar, dunyoviy darajalarni qabul qilish uchun jon kuydurish va kurashishni rad qilish haqida».

Dessertantning fikricha, bu kitobda ar-Roziy axloqiy pastkashlikka alohida urg'u bergan. Uning fikricha, pastkashlikning muhokamasida insonning xarakteridagi afzaliklarini e'tirof etishda namoyon bo'ladi. Bizning fikrimizcha, yuqorida sanab o'tilgan xarakter xususiyatlari insonni to'g'ri yo'ldan ozdiradi, natijada inson ko'plab yomonliklarni qilib, oxir oqibat hayvoniy qiyofaga kira boshlaydi.

Faylasuf o'zini qalbini boshqara olgan har bir shaxs baxtli va tinch yashaydi, «o'zini qalbiga quloq solgan esa, yaxshi hayot haqida orzu qiladi»⁴⁰ deb, ta'kidlaydi.

Qalbni bo'ysundirish juda qiyin, ammo uni ong bilan chegaralab turish mumkin.

³⁹Mehdi Muhaqiq. Faylasufi Ray Muxammad ibn Zakariyo Roziy. Texron.1349 , -C. 19.

⁴⁰Закариев Розий. Мунтахаби осор. Душанбе, Адиб 1989 -C.58.

Shunday qilib, olimning fikriga ko'ra, barcha ehtirolardan va istaklardan ustunlikni ta'minlash bora-bora insonning odatiga aylanib qoladi. Bunday vaziyatda qalb boshqarilishga moslashib qoladi.

«Qanday qilib qalbni ongga bo'ysundirish mumkin?», degan savolga Ar-Roziyning fikricha, bunga quyidagi yo'llar bilan erishish mumkin:

1. Dastlab qalbni kichkina ehtiros va xoxishlardan tiyish kerak
2. Bundan keyin aql rad etadigan narsalarni taqiqlashi keyin esa, muhimroq bo'lgan narsalar bilan kurashishga o'tish kerak.

Bu barcha cheklovlar qalbning ehtirosini o'ldira boradi.

Shu tarzda hayvon va o'simlik qalblari aqliy qalbga bo'ysunadi, sekinlik bilan bu odatga aylanadi, va qalb ta'sir ostiga tushib qoladi, keyin inson osonlik bilan boshqa qalb qiladigan narsalardan odatlardan qutiladi.

Abu Bakr ar-Roziyning etikaga qo'ygan vazifalari quyidagichadir:

1. Qalbni tarbiyalash
2. O'qitish va tarbiyalashdan foydalanish
3. Aqliy qalbni mukammallashtirish, unga o'suvchi va hayvon qalblarini bo'ysundirish
4. Qalb ehtirolarini jilovlash
5. Qalbni ongga bo'ysundirish
6. Yoqimsiz harakatlarni yaxshi tomonga o'zgartirish
7. Yaxshi xulq-atvorni shakllantirish
8. Qalbni ongga bo'ysundirish asosiy maqsad bo'lishi.

«Haqiqatan ham, ehtirosini ushlab, uni bostirgan odam dastlab achchiq va azob-uqubatni boshdan kechiradi, ammo bundan keyin yoqimli va totli g'alaba hissi paydo bo'ladi, o'zi quvonadi va bundan quvonch va rohat shu qadar ko'payadi. Vaqti bilan qiyinchiliklar va ehtirolarni engish va istaklarni engish yuki bilan, ayniqsa agar u buni doimiy va doimiy ravishda qilsa, bu qalbga ko'nikish uchun u odatiy tarzda osonlikcha va og'riqsiz ravishda ko'tariladi. U buni oddiy va mayda istaklardan bosh tortib, qalb nima sababdan voz kechishidan, agar aql va tafakkur talab qilsa, boshlashi kerak. Keyin u bu masalada yanada ko'proq narsalarga erishishga harakat qilishi kerak va asta-sekin bu uning fe'l-atvoriga va odatiga o'xshaydi. Shunday qilib, hissiy qalb zaiflashadi va aqli qalbga bo'ysunishga odatlanadi. Bu odat yanada kuchayadi va odam xursand bo'lgan paytlarida uning ehtirosni qaytarish qobiliyatidan kelib chiqadigan va bundan fikrlash, aqli ishlarni tashkil qilish uchun foydalanishda ijobiy oqibatlarga aniq ishonadi. Odamlar buning uchun uni maqtashadi va u kabi bo'lishga harakat qilishadi»⁴¹. Ar-Roziy g'am-g'ussaning zarari haqida quyidagi fikrlarni keltirgan:

⁴¹ Translated from the Arabic by Arthur J. Arberry, Litt.D., F.B.A. Sir Thomas Adams's Professor of Arabic in the University of Cambridge. 1950.page-35

أقول : إنه لما كانت المادة التي منها يتولد النعم ، إنما هي نقد المحبوب ، ولم يمكن ألا تفقد هذه المحبوبات ، لتداول الناس لها ، وكرور الكون والفساد عليها ، وجب أن يكون ص ٦٧ (٢) أكثر الناس وأشد هم غما من كانت محبوباته أكثر عددا ، وكان لها أشد حبا ، وأقل للناس غما من كانت حاله بالعدد من ذلك .

Men aytamanki: g'amning paydo bo'lishiga sabab bo'ladigan asosiy omil – bu sevimli narsani yo'qotishdir. Biroq, bu sevimli narsalarni umuman yo'qotmaslik mumkin emas, chunki ular doimo insonlar o'rtasida qo'ldan qo'lga o'tib turadi, biri bor, bir yo'q bo'lib turadi. Shu sababli, eng ko'p va eng og'ir g'amga duchor bo'ladigan odam – sevimli narsalari ko'p bo'lgan va ularga juda qattiq bog'langan kishidir. Aksincha, eng kam g'am chekadigan odam esa sevimli narsalari kam bo'lgan va ularga kamroq bog'langan kishidir⁴².

Dissertatsiyaning uchinchi bobi, **Abu Bakr ar-Roziyning «Siyrat ul-falsafa» asari va undagi mulohazalarning inson hayotidagi ahamiyati deb nomlanib**, Ushbu risolada ko'tarilgan savollar uning umumiy bilimlari orasida eng asosiylarini o'zida jamlagan hamda boshqa asarlaridagiga qaraganda aniqroq qayd etib o'tilgan. Bu erda u o'zi kechirgan hayot tarzini oqlashga urinadi, va bunda u o'zi tan olgan ustozlari Suqrotning hayoti bilan qanchalik mos keluvchi hayot kechirganligini ko'rsatib o'tadi. Ar-Roziy uchun ham, Suqrot uchun bo'lgani kabi eng asosiy muammo bu falsafiy moyilligi bo'lgan individ, g'oyalar dunyosiga qarshi bo'lgan insoniyat olamida qanday darajada jalb etilishi kerakligida edi.

O'zining qizg'in tabiati tufayli ar-Roziy o'zini himoya qilish uchun, Suqrot va uning yakkalanib zohidiy hayot kechirishni odamlarga qo'shilish va siyosiy faoliyat bilan shug'ullanishga o'tganligi haqida gapiradi, biz uning namoyishiga ishtiyoq bilan o'tamiz. Bu asarda, ar-Roziy falsafaga ergashish uchun jo'shqinlik bilan iltijo qiladi, va musulmonlar buni mensimasligiga qaramasdan bu faoliyatini davom ettiradi. O'zining raqiblariga bergan javoblari bizni falsafiy siyosatning ibtidosi tomon etaklaydi. Bu kuzatuvlarni aniqroq va ishonarliroq qilish uchun, men Falsafiy hayot kitobining asosiy mulohazalarini tahlil qilib chiqishni va ar-Roziyning keng siyosiy ta'limotini e'tirof etilishining sababini o'rganib chiqishni xoxlardim.

Falsafiy hayot kitobi to'rtta asosiy qismga bo'linishi mumkin: kirish, ar-Roziy mavzudan chetga chiqqan holda falsafiy hayotning asosiy xususiyatlarini ilgari surishi, o'zini oqlashga urinish va xulosa qismlar. Ishning eng qisqa qismlari kirish va xulosa qismlar hisoblanadi, ularning har biri bir betdan kamroq bo'lgan matndan iboratdir. Hattoki u o'zini oqlashga uringan qism ham nisbatan kam hisoblanadi va ikki betdan ko'proqni tashkil qiladi. Kitobning eng katta va batafsil yoritilgan qismi bu mavzudan chetlashgan holda falsafiy hayotga urg'u bergan qismidir⁴³.

⁴² Abu Bakr ar-Roziy "Ruhiiy tibbiyot" 1987. 88 bet.

⁴³ "The Book of the Philosophic Life" Abu Bakr Muhammad ibn Zakariyya al-Razi Translated by Charles E. Butterworth University of Maryland. 1950, page-7.

Bir faylasuf haqida hikoya qilishlaricha, u hali hayotda tajribaga ega bo'lmagan yigit bilan bir dasturxon atrofida o'tirgan va yigit faylasufning yemagini kuzata turib, go'yokim shunchakidek, unga degan: «Agar mening emagim sening ulushingga teng bo'lsa edi, ehtimol, tirik qolmasdim». Bun qarata faylasuf debdi: «Ha, o'g'lim, men yashash uchun ovqatlanyapman, sen esa, ko'rinib turibdiki, ovqatlanish uchun yashashni istaysan»⁴⁴. Sotib olishning eng yaxshisi, eng barqaror va xizmatga loyiq, natijalar nuqtai nazaridan eng ishonchli – bu hunarmandchilik, ayniqsa amaliy ahamiyatga ega bo'lgan tabiiy buyumlar, ehtiyoj barcha mamlakatlarda va barcha xalqlar orasida doimo seziladi va saqlanib qoladi, boylik, mol-mulk va xazinalar dunyoning voqeliklaridan himoyalangan. Shu bois ham faylasuflar boylikka emas, hunarmandchilikka ega bo'lgan odamdan boshqasini boy deb bilishmaydi.

Bir odamning dengizda kemada halokatga uchragani va butun boyligi yo'qolgani haqida hikoya qiladilar. Ammo qirg'oqqa ko'tarilganda, erga qandaydir bir geometrik rasm chizilganini ko'rgan. Bu odamning ruhi xursand bo'lib ketdi, chunki u aqlli odamlar yashaydigan orolga tushib qolganini anglagandi. Bu erda u yana boylikka ega bo'ldi, ustuvor mavqeni egalladi va ular bilan qoldi. O'sha joyning yonidan esa uning vataniga jo'nayotgan kemalar suzib o'tardi. Bir kuni o'sha erdan suzib o'tayotgan odamlar u vatandoshlariga maktub jo'natishni istamaydimi, agar jo'natsa uni eltib berishlarini aytadilar. U ularga dedi: «Siz ularning yoniga etib borganingizda, ularga quyidagilarni ayting: cho'kib ketmaydigan narsalarni yig'ing va asrang»⁴⁵. Deymizki: agar inson adolat va kamtarinlikni namoyon etsa, odamlarga kamroq termulsa, ular bilan muloqotda kamroq qaysarlik qilsa va zo'rovonlik qilsa, ular tomonidan chuqur hurmat qilinadi. Agarda u bunga olijanoblikni, ularga nisbatan samimiylik va rahm-shafqatni qo'shsa, unda, shubhasiz, ularning muhabbatiga sazovor bo'ladi. Lekin aynan mana shu ikki fazilat – adolat va kamtarlik – bu ezgu va olijanob hayot tarzining ikki samarasidir.

Kitob ar-Roziyning aqilli, kuzatuvchi va muvaffaqiyatli kishilar uni faylasuflar hayoti, ayniqsa uning ustozi bo'lgan Suqrot kechirgan hayot tarzidan uzoqlashib ketganlikda tanqid qilganliklari bilan boshlanadi. U odamlar bilan aloqa o'rnatganlikda va dunyoviy hayot kechirganlikda ayblanadi, chunonchi Suqrot kechirgan hayot tarziga ko'ra kishi o'zini odamlar bilan munosabat o'rnatishdan – ayniqsa boy va qudratli kishilar bilan aloqa qilishdan – tiyishi va o'zining shaxsiy xalovatidan kechishi kerak edi. Suqrot tiyilishni aytib o'tgan to'qqizta narsaning eng asosiysi bu hech narsaga ega bo'lmaslik edi, ya'ni istalgan mol mulkni rad etish edi, bu rad etish ramziy tarzda o'zini eski tuski narsalar bilan o'rash bilan bir vaqtning o'zida amalga oshirilishi kerak edi. Bu juftlik Suqrotning yanada qarama qarshi bog'lanishga ega bo'lgan yaxshi kiyimlarni kiyishni rad etish – u o'zini olib qochgan narsalarning uchinchisi – eski kiyim boshga murojaat qilishdan ustun turar edi. Shu narsa qayd etilishi kerakki, salbiy ro'yxat Suqrotning antiijtimoiy xulq atvoriga xavola bilan boshlanib xuddi shu tarzda tugatiladi, ijobiy ro'yxatda esa faqat oxirida

⁴⁴ Абу Бакр ар-Рази. Духовная медицина -Душанбе;Ирфон.1990- С.65

⁴⁵ Абу Бакр ар-Рази. Духовная медицина -Душанбе;Ирфон.1990- С. 76

bunday murojaatni amalga oshiradi. Salbiy ro'yxatda o'zi egalik qilmaganligini o'zi qanday qilib narsalarga egalik qilishdan tiyilganligi misollari bilan keltiradi, bunda u hech narsa qurmaganligini aytib o'tadi. Faqatgina uning oziq ovqat va ichimlikdan tashvish chekmaganligi tez-tez teng ravishda takrorlanadi. Ushbu jumalardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Suqrotning mol-mulk to'plashga bo'lgan e'tiborsizligi va tana rohatlaridan voz kechishi e'tiborni tortadi. Haqiqatan ham, to'qqizta talabni uning kiyinish odatlari, mol mulk to'plashda u amalga oshirgan turli xil kamchiliklar, ovqat va ichimlikka nisbatan ishtaxasining bo'lmasligi bilan solishtiradigan bo'lsak, uning boshqa odamlar bilan aloqa qilishdan manfaatdor emasligining faqat uchta belgisi mavjud.

XULOSA

Abu Bakr ar-Roziy hayoti, ijodi va merosini o'rganish uning tibbiyotdan falsafagacha bo'lgan turli fan sohalariga qo'shgan hissalarini ochib beradi. U nafaqat o'z davrining ko'zga ko'ringan tabibi, balki asarlarida axloq, insonparvarlik, ratsionalizm masalalariga bag'ishlangan teran mutafakkir ham bo'lgan. Ar-Roziyning asarlari ham islom, ham Yevropa ilmiy tafakkurining rivojiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Paul Kraus va boshqa olimlarning ar-Roziy asarlarini o'rganish va nashr etishga qo'shgan hissi jahon hamjamiyatiga uning g'oyalari teranligi va ahamiyatini chuqurroq anglash va baholash imkonini berdi. Uning ba'zi falsafiy qarashlari bid'atchilik sifatida qabul qilingan va o'z davrida keng qabul qilinmagan bo'lsa-da, bugungi kunda uning insonparvarlik, aql-idrok, bilim izlash haqidagi g'oyalari zamonaviy dunyo uchun naqadar muhim ekanini ko'rishimiz mumkin.

Abu Bakr ar-Roziy ilmiy merosining falsafiy tahlili ("Tibb ur-ruhoniyy" va "Siyrat ul-falsafa" asarlari misolida) mavzuida olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi nazariy xulosalarga kelindi:

1. Abu Bakr Muhammad Zakariyo ar-Roziy ilmiy-falsafiy faolyatining eng cho'qqisi unga ta'sir ko'rsatgan yo'nalish va oqimlar, neoplatanizm va stoiklar falsafasi va boshqa falsafiy maktablar orqali rivojlanganini ko'rishimiz mumkin.

2. Ar-Roziy O'rta asr falsafasi tarixida shakllangan ta'limotlarning birortasiga bog'liq bo'lmagan holda ontologiya(borliq) va uning mohiyati haqida o'zining nazaryasini yaratdi. «Besh abadiyat» ta'limoti uning falsafasini yaqqol namoyon qildi. Ar-Roziyning «Tibb ur-ruhoniyy», «Siyrat ul-falsafa» va «Davlatmandlik va baxt iqbol haqida» kabi asarlari olimning falsafiy qarashlarini ochib beruvchi manba hisoblanadi.

3. Ar-Roziy mutaziliylar kabi insonlardagi iroda erkinligini targ'ib qilgan va insonlar yaxshi va yomon ishlarini qilishda o'z irodasiga tayanib bajarishini ta'kidlagan. Ar-Roziyning bilish nazaryasidagi fikri ham juda muhim bo'lib, bilishning eng yuqori bosqichi deb aqlni ta'kidlaydi Insonning barcha ijobiy ishlari faqat aql tufayli amalga oshadi deb ta'kidlagan. Olimning Gedonizm -tarafdori bo'lgani ham muhim hisoblanib, dunyo noz-ne'matlaridan aqlga muvofiq va me'yor bilan foydalanishni ta'kidlagan va bu masala hozirgi kunda ham dolzarb vazifa ekanligi diqqatga sazovordir.

4.Ar-Roziyning «Tibb ur-ruhoniyy» asari orqali insonlar axloqidagi kamchilliklar va ularni bartaraf qilish borasidagi fikrlarni berib oʻtgan, ong, ehtiros, qalb, gʻam, sharobxoʻrlik, beʻmaniodatlar, unvonlar, ehtiyojlar va chiqimlarning meʼyori, yolgʻonni rad qilish bu axloqiy meʼyorlar ulardan qutulish va oldini olish borasidagi taklif va mulohazalar berilgan. Bugungi kunda ham koʻrishimiz mumkinki insonlar xulq-atvorida yuqoridagi axloqiy meʼyorlar buzulishi koʻp uchraydi. Bu borada ar-Roziyning «Tibb ur-ruhoniyy» asaridagi fikrlari juda oʻrinlidir.

5.Olimning asarlarini oʻrganish davomida shunga guvoh boʻldikki, inson xulq-atvorining eng boshlangʻich nuqtasi sifatida ong koʻriladi va unga qarshi qalb turadi. Agar insonlar yaxshi ilm va fazilatlarga ega boʻlishni xoxlasak, qalbimizni oʻzboshimchaligini ongga boʻysundirishimiz, uni tarbiyalashimiz kerak degan xulosa qilish mumkin. Hozirgi kunda ham olimning fikrlari oʻz ahamiyatini yoʻqotmagan, yaʼni oʻzini qalbini boshqara olgan har bir shaxs baxtli va tinch yashaydi, oʻzini qalbiga quloq solgan insonlar esa yaxshi hayot haqida orzu qiladi.

6.Falsafiy hayot qanday boʻlishi kerak degan masalaga, ar-Roziy faylasuf olimlar Suqrot hayotidan uzoqlashganliklarini, yaʼni insonlar oʻzlarini boy badavlat insonlardan tiyishi kerakligini taʼkidlaydi. Inson voz kechishi kerakligi haqidagi toʻqqizta narsaning eng asosiysi bu insonning ortiqcha mol-mulkka ega boʻlmasligi haqidagi fikri hisoblanadi.

7.Insoniyat manfaatlariga qaratilgan axloq: Ar-Roziy etikasida insonning salomatligi va farovonligi, uning ruhiy va jismoniy holati bir-biriga uygʻun boʻlishi kerakligi taʼkidlanadi. Bugungi kunda tibbiyotda, ayniqsa psixosomatik kasalliklarni davolashda, jismoniy va ruhiy holatlarning bir-biriga taʼsiri muhim ahamiyatga ega. Ar-Razi shifokor sifatida bu yondashuvni ilgari surgan boʻlib, uning bu qarashlari zamonaviy tibbiyotda ham eʼtiborga olinmoqda.

8.Adolat va shafqatli yondashuv: Ar-Roziy oʻzining axloqiy qarashlarida adolat va shafqatni ulkan ahamiyatga ega deb bilgan. U insonning haq-huquqlarini hurmat qilish va barcha bemorlarga teng muomala qilish kerakligini taʼkidlagan. Bugungi kunda jamiyatda adolat, tenglik va inson huquqlariga hurmat bilan bogʻliq muammolar muhim oʻrin tutadi. Ar-Roziyning bu qarashlari, zamonaviy tibbiyotda bemorlarga munosabatda, hamda jamiyatda tenglikni taʼminlashda oʻrnak boʻladi.

9.Ilmiy va axloqiy masuliyat: Ar-Roziy ilm-fan va axloqning oʻzaro bogʻliq boʻlishi kerakligini aytgan. Bugungi kunda, ilmiy tadqiqotlar va texnologiyalar rivojlanishi bilan birga, insoniyatning axloqiy masuliyatlari ham dolzarb boʻlib qolmoqda. Tibbiyot va ilm-fan sohalarida etik muammolar, masalan, genetik modifikatsiya, sunʼiy intellekt, biotexnologiyalar kabi sohalarda Ar-Roziyning ilm va axloqning uygʻunligi haqidagi qarashlari yangi avlod mutaxassislari uchun yoʻl-yoʻriq boʻlishi mumkin.

10.Ruhiy salomatlik va insonning ichki dunyosi: Ar-Roziy ruhiy holatni, qalbni va ongni oʻzaro bogʻlagan. Bugungi kunda psixologiya, psixiatriya va ruhiy salomatlik sohalarining rivojlanishi ortidan, uning bu sohalarga oid fikrlari juda muhimdir. Kambagʻallik, stress, travmalar va boshqa psixologik omillar insonlarning ruhiy holatiga taʼsir qiladi, va Ar-Roziy ruhiy salomatlikni jismoniy

salomatlik bilan birgalikda ko'rgan. Bu yondashuv bugungi kunda ruhiy salomatlikka bo'lgan e'tiborning oshishiga yordam beradi.

11. Etik tafakkur va ijtimoiy masuliyat: Ar-Roziy etikasida shaxsiy masuliyatni ta'kidlagan, bu esa zamonaviy jamiyatda ham muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda odamlar o'zlarini jamiyatda qanday tutishlari, axloqiy javobgarlik va ijtimoiy masuliyat masalalari ham ko'tarilmoqda. Ar-Roziyning axloqiy prinsiplaridan ilhomlanish, shaxsning o'zini rivojlantirish va boshqalarga foyda keltirishga yo'naltirishga yordam beradi.

12. Shunday qilib, Ar-Roziy etikasi bugungi kunda tibbiyot, psixologiya, ijtimoiy munosabatlar va ilmiy masuliyat sohalarida o'zining dolzarbligini saqlab, insoniyatning rivojlanishiga, salomatligi va axloqiy yaxshilanishiga xizmat qilmoqda. Ar-Roziy o'z davrining axloqiy muammolari haqida fikr yuritgan ekan, bugungi kunda ham dolzarb bo'lishi mumkin bo'lgan echimlarni taklif qildi. Uning ma'naviy-axloqiy va falsafiy-estetik merosini ommalashtirish bo'yicha tavsiyalar zamonaviy jamiyatga axloqiy illatlarga qarshi kurashda yordam berishi mumkin, mo'tadillik, o'zini tuta bilish va fazilatlarni rivojlantirish muhimligini ta'kidlaydi. Bugungi globallashtirish sharoitida Abu Bakr ar-Roziyning axloqiy qarashlari dolzarb bo'lib, mamlakatimizda olib borilayotgan ma'naviy sohadagi ishlarda hamohang hisoblanadi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019. F.01.05 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ НАЦИОНАЛЬНОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
УЗБЕКИСТАНА**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

САФАРОВ МАКСУДАЛИ КАМОЛ УГЛИ

**ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ НАУЧНОГО НАСЛЕДИЯ АБУ
БАКРА АР-РАЗИ**

(На примере произведений «Тибб ур-рухани»и «Сийрат уль-фальсафа »)

09.00.03 – История философия

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по ФИЛОСОФСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) по философским наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан под номером за №B2023.2. PhD/Fal994.

Диссертации выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Учёного совета (ik-falsafa@nuu.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Мухтаров Азамат Мухтарович
доктор философии наук, профессор

Официальные оппоненты:

Холмўминов Жаъфар Мухаммадиевич
доктор философских наук, доцент

Ходжаев Мўминжон Исохонович
доктор философских наук, доцент

Ведущая организация:

Ташкентский государственный транспортный университет.

Защита диссертации состоится 4 сентябрь 2025 года в 16:00 часов на заседании Научного совета № DSc 03/30.12.2019. F.01.05 при Национальном университете Узбекистана. Адрес: 100174, г. Ташкент, ул. Университетская, 4. Тел.: (99871) 246-02-24, факс: (99871) 246-02-24, электронная почта: pauka@nuu.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Национального университета Узбекистана (зарегистрирован под номером). Адрес: 00174, город Ташкент, улица Университетская, 4. Тел.: (99871) 246-02-24; факс: (99871) 246-02-24).

Автореферат диссертации разослан «__21__»август 2025 года.

(протокола реестра рассылки под № «__» от «_____» 2025 года.)

И.С. Саифназаров

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философских наук, профессор

Г.М. Шадиметова

Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философских наук (PhD), доцент

У.Г. Тиладов

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор философских наук, профессор

**SCIENTIFIC COUNCIL DSc.03/30.12.2019.F.01.05 ON AWARDING
SCIENTIFIC DEGREES AT THE NATIONAL UNIVERSITY OF
UZBEKISTAN**

TASHKENT STATE UNIVERSITY OF ECONOMICS

SAFAROV MAKHSUDALI KAMOL OGLI

**PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF THE SCIENTIFIC HERITAGE OF
ABU BAKR AR-RAZI**

(On the example of the works “Tibb ur-ruhani” and “Sirat ul-falsafa”)

09.00.03– History of Philosophy

**DISSERTATION ABSTRACT OF THE DOCTOR OF PHILOSOPHY (PhD)
ON PHILOSOPHICAL SCIENCES**

Tashkent – 2025

The theme of the dissertation of the Doctor of Philosophy (PhD) was registered under the number №B2023.2.PhD/Fal994 by the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and innovation of the Republic of Uzbekistan.

The dissertation was completed at the Tashkent state university of economic.

The abstract of the dissertation was posted in three languages (Uzbek, Russian, English (Resume) on the website of the Scientific Council (www.fs-ik.uz) and on <<Ziyonet>> information and educational portal (www.ziyonet.uz).

Scientific supervisor:

Muxtarov Azamat

doctor of philosophical science, professor

Official opponents:

Xolmo‘minov Ja’far Muhammadiyevich

Doctor of Philosophy (PhD) in Philosophy,
Associate Professor.

Khojayev Muminjon Isoxonovich

Doctor of Science (DSc) in Philosophy,
Associate Professor.

Leading organization:

Tashkent State Transport University

The defense of the dissertation will take place on , at 2 p.m. at the meeting of the DSc under the National University of Uzbekistan.03/30.12.2019.F.01.05 Digital Science Council (Address: 100174, Tashkent, Almazar district, University Street, house 4, Youth Affairs Agency of Uzbekistan, Tashkent city administration building, meeting hall.). Tel.: (99871) 227-12-24; fax: (99871) 246-02-24; e-mail: nauka@nu.uz.)

The doctoral dissertation is available at the Information Resource Center of the National University of Uzbekistan (registered №). (Address: 100174, Tashkent, University Street, 4th house, Administrative building of National University of Uzbekistan, 2nd floor, room 4. Tel.: (99871) 236-46-55, fax: (99871) 246-02-24.)

The abstract of the dissertation is distributed on.
(register of the dispatch protocol №22 dated on).

I.S.Saifnazarov

Chairman of the Academic
Council for awarding Academic
Degrees, Doctor of Philosophy,
Professor

G.M. Shadimetova

Secretary of the Academic
Council for Awarding Academic
Degrees, Doctor of Philosophy,
associate professor

U.G. Tilavov

Chairman of the scientific
seminar at the Academic Council
for Awarding Academic Degrees,
Doctor of Philosophy, Professor

INTRODUCTION (abstract of doctoral (PhD) dissertation)

The aim of the research Abu Bakr ar-Razi's philosophical and ethical views through his works "Tibb ur-ruhaniy" ("Spiritual Medicine") and "Sirat ul-falsafa" ("Philosophical Lifestyle").

The object of the research in the philosophical and moral concept of Abu Bakr al-Razi.

The subject of research. the philosophical and moral thoughts in the works of Abu Bakr ar-Razi, "Tibbi Ruhani"(Spiritual Medicine), "Sirat ul-falsafa" "Philosophical Way of Life" organizes philosophical and ethical thoughts.

The scientific novelty of the research is as follows: The content of Manichaeism, Mazdakite, and Mu'tazilite teachings, which influenced the formation of Abu Bakr al-Razi's ethical and philosophical views, has been revealed for the first time based on an evolutionary-methodological approach. Their epistemological consistency in religious-philosophical thought and social governance has been scientifically substantiated.

The ethical ideas presented in Abu Bakr al-Razi's work "Spiritual Medicine" (Tibb al-Ruhani) have been studied for the first time through a comparative analysis with contemporary ethical thought, and their current methodological significance has been identified.

The ethical categories in Tibb al-Ruhani have been scientifically justified as a system of norms necessary for the education of the youth of New Uzbekistan, the development of ethical competencies, and spiritual-enlightenment progress in the context of globalization.

Through his work "The Conduct of Philosophy" (Sirat al-Falsafa), Abu Bakr al-Razi outlines the essence of a truly philosophical way of life. This includes norms of dress, attitudes toward the accumulation of wealth, food and drink, as well as a system of perfection criteria that encourage harmony and enlightenment. These axiological and philosophical approaches related to the behavior, intellectual, moral, professional, and creative thinking of youth, and their spiritual and educational development, are presented based on socially accepted norms and values.

The practical results of the research are as follows:

The content of Manichaeism, Mazdakism, and Mu'tazilism—teachings that influenced the formation of Abu Bakr al-Razi's ethical and philosophical views—has, for the first time, been explored using an evolutionary-methodological approach. Their epistemological consistency within religious-philosophical thought and social governance has been scientifically substantiated. As a result, the analytical findings, proposals, practical recommendations, and scholarly conclusions presented in this dissertation concerning Abu Bakr al-Razi's "*Spiritual Medicine*" (Tibb al-Ruhani) were utilized by the Imam Termiziy International

Research Center in organizing annual programs such as roundtable discussions and outreach activities under the themes “Enlightenment Against Ignorance” and “The Sinister Intentions of Extremist and Terrorist Organizations and the True Essence of the Holy Religion of Islam.” These efforts proved to be effective. In the current era of increasing global spiritual threats, this particular dimension of al-Razi’s worldview is of even greater importance, both theoretically and practically (Imam Termiziy International Research Center, Report No. 01-07/42, dated March 18, 2025).

The ethical concepts presented in Abu Bakr al-Razi’s *Tibb al-Ruhani* have been analyzed for the first time in comparative perspective with contemporary ethical thinking, and their methodological relevance for modern times has been identified. For instance, according to Clause 26 of the sixth direction of the 2023 Action Plan of the Republican Center for Spirituality and Enlightenment—aimed at promoting interethnic harmony and interfaith tolerance, and preventing radicalism—the materials of this dissertation were used in awareness campaigns addressing youth vulnerability to destructive ideologies. Additionally, Clause 28, which focuses on effective counter-propaganda against radical moods and immorality among the youth, also benefitted from the dissertation’s findings. As a result, the recommendations and conclusions presented in the research have contributed to national efforts in elevating spirituality, strengthening the moral development of youth, countering radicalism and extremism, and developing methodological guidance for spiritual-educational activists across the country.

In the context of globalization, these insights have enhanced youth’s spiritual-educational outlook and promoted interreligious and intercultural harmony, while increasing the effectiveness of religion and science in social development (Republican Center for Spirituality and Enlightenment, Report No. 10/137, dated March 18, 2025).

The ethical categories discussed in *Tibb al-Ruhani* have been scientifically validated as a normative framework essential for the upbringing of youth in New Uzbekistan, development of moral competencies, and spiritual-intellectual growth in the globalized era. In a time when globalization is intensifying and posing growing threats to the national mentalities and local civilizations of various nations, the dissertation provides a theoretical analysis of essential ethical categories for society’s spiritual life. These categories remain vital for addressing moral challenges and elevating social ethics. Al-Razi’s ethical perspectives were also referenced in the preparation of the encyclopedia “The Historical and Philosophical Legacy of Medieval Eastern Scholars and Thinkers,” published by the Imam Bukhari International Research Center under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan. His ideas were further utilized in roundtable events and outreach programs organized by the center (Report No. 02/63, dated February 13, 2025).

Through Abu Bakr al-Razi’s work *Sīrat al-Falsafa* (The Conduct of Philosophy), a vision of the ideal philosophical life is presented—covering etiquette in dress, attitudes toward wealth, food and drink, as well as a framework of perfection that encourages unity and enlightenment. These axiological and philosophical

approaches—linked to youth behavior, intellectual and moral development, professionalism, creative thinking, and spiritual-educational growth—are articulated within the context of society's accepted norms and standards. Al-Razi's philosophical worldview has contributed to advancing scholarly and historical understanding of the soul and human consciousness. His thoughts were utilized in the preparation of the script for the "Presentation" program on the *Uzbekistan History* TV channel of the National Television and Radio Company of Uzbekistan (Report No. 01-33-81, dated February 18, 2025).

The structure and scope of the dissertation.

The thesis consists of "Introduction", three chapters, eight paragraphs, "List of used literature" and "Appendices". The volume of the dissertation is 135 pages.

E'LON QILINGAN ISHLAR RO'YXATI СПИСОК ОПУБЛИКОВАННЫХ РАБОТ LIST OF PUBLISHED WORK

I bo'lim (I часть; part I)

1. Safarov.M.K. Inson tabiatida ehtirosni tuta bilish borasidagi mushohadalarning Ar-Roziy asarlaridagi tahlili//QarDU xabarlarini//2023№3/2(59)-B.125-130. (09.00.00;№18)
2. Safarov.M.K. Ar-Roziyning falsafiy nazariyalari va ular haqida mulohazalar// Falsafa va huquq//2023ISSN:2181-7294 №/24(4).-B.183-186.(09.00.00;№15)
- 3.Safarov.M.K. Abu Bakr ar-Roziyning "Tibbi Ruhoniy (Ruh tibbiyoti) asarida g'azabni va insonning o'z kamchiliklarini bartaraf qilish haqida mulohazalar// Ijtimoiy fanlarning dolzarb muammolari//2023 ISSN:2181-1342(ONLINE)№/2(3)-B.214-219. (09.00.00;№18)
4. Safarov.M. K The Role of Consciousness in the Epistemological Views of Abu Bakr Zakariya Ar-Razi // Central Asian journal of literature, philosophy and culture. ISSN: 2660-6828 Vol 04 Issue: №04 Apr 2023. – Spain. – P. 47-52. (№ 4; SJIF,5.99)
- 5.Safarov.M.K. Abu Bakr ar-Roziy etikasida insonning o'z kamchiliklarini anglashi va uni bartaraf qilish muhokamasi// Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural And Social Sciences// 2021 ISSN: 2181-1784 Vol 1, Issue 9, 2021. – B.68-72 (№23; SJIF, 5.423).

- 6.Safarov.M.K. Abu Bakr ar-Roziyning “Falsafiy hayot tarzi» asarida Suqrot hayotining yoritilishi//2024 International scientific journal of Biruni.ISSN(E) 2181-2993 Vol.3, Issue 1.feb. (2024)- B.49-54. (№ 23; SJIF,5.99)
- 7.Safarov.M.K. Yangi O‘zbekiston: barqaror rivojlanishining ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy-siyosiy va huquqiy masalalari» xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi ilmiy maqolalar to‘plami. Abu Bakr ar-Roziyning “Falsafiy hayot tarzi» asarida inson ma’naviy hayotidagi quyi va yuqori chegaralar tahlili// // 2022 ISSN: 2181-1784 ASI factor= 1.7, 2021. – B.872-877 (№23; SJIF, 5.9457).
- 8.Safarov.M.K.Ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash va madaniyat sohasini isloh qilish, O‘zbekiston–2030 strategiyasi,inson salohiyatini ro‘yobga chiqarish imkoniyatlari. Respublika amaliy-ilmiy konferensiyasi.17-aprel 2024.-B.603-607
- 9.Safarov.M.K. Ar-Roziy etikasida chiqimlar va ehtiyojlarning o‘lchovi “Yangi O‘zbekiston huquqiy, dunyoviy va ijtimoiy davlat sifatida rivojlanishning ijtimoiy-falsafiy, iqtisodiy va siyosiy masalalari»€ ISSN:2181-1784 4(21), May, 2024

II bo‘lim (I часть; part I)

1. Safarov.M.K. va boshqalar jamoasi “O‘rta asr g‘arb va sharq falsafasi», Monografiya; Toshkent 2024.-260.b
- 2.Safarov.M.K. Abu Bakr Muhammad Zakariyo Ar-Roziyning ontologik ta’limoti. //Sharqshunoslar anjumani,2020,16-son,344-348.b.
- 3.Safarov.M. K, Umarjonov.S.S. Abu Bakr ar-Roziy etikasida befoyda o‘y surish va ochko‘zlik muhokamasi // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural And Social Sciences// 2021 ISSN: 2181-1784 Vol 1, Issue 5, 2021. – B.1045-1049. (№23; SJIF, 5.423).
- 4.Safarov.M. K, Umarjonov.S.S. Matter of consciousness in the philosophy of ar-Roziy and its current importance Editorial board of International Electronic Scientific and Practical Journal «WayScience» (ISSN 2664-4819 (Online) Dnipro, Ukraine – 2022.- B.135-138
- 5.Umarjonov.S.S.Safarov.M.K. Fahridin Roziyning “Latoif ul-G‘iyosiyot’ qo‘lyozma asarida aql va e’tiqod masalasining qo‘yilishi va uning diniy falsafiy germevtik tahlili // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural And Social Sciences// 2021 ISSN: 2181-1784 Vol 1, Issue 5, 2021. – B.1045-1049. (№23; SJIF, 5.423).
- 6.Safarov.M.K.Abu Bakr ar-Roziyning “Tibbi Ruhoniy(Ruh tibbiyoti) asarida qayg‘u va uni bartaraf qilish masalasi// Shoislom Shomuhamedov nomidagi yosh sharqshunoslarning IV forumi materiallar to‘plami, 2020,IV son,207-211.b.